

TARJIMA NAZARIYASIDA "MADANIY EKVIVALENT" TUSHUNCHASI VA O‘ZBEK TILIDAGI QO‘LLANISHI

Abduxamidova Muslima Murod qizi

muslima22052004@gmail.c +998 992997606

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Tarjimashunoslik (xitoy-ingliztili)” yo’nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti”

Kafedra katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola tarjima nazariyasining eng murakkab kategoriyalaridan biri bo‘lgan madaniy ekvivalent konsepsiyasini chuqur ilmiy tahlil qiladi. Dunyo tarjimashunosligida E. Nida, P. Newmark, L. Barkhudarov, V. Komissarov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar hamda o‘zbek tarjima maktabi vakillari — Sh. Rahmatullaev, N. Qosimov, A. Sobirovlarning ilmiy qarashlari asosida madaniy birliklarning tarjimada qanday transformatsiyalarga uchrashi yoritiladi. Tadqiqotda madaniy konnotatsiyalarga ega birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan semantik nomuvofiqlik, pragmatik tafovut, milliy-madaniy kodlarning mos kelmasligi kabi muammolar tahlil qilinib, turli janr va matnlardan olingan misollar asosida ularning ekvivalentlangan shakllari baholanadi. Muallif tomonidan madaniy ekvivalentni tanlash mezonlari va amaliy yechimlar bo‘yicha yangi takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: madaniy ekvivalent, madaniy signifikat, konnotativ ma’no, tarjima transformatsiyasi, milliy kod, pragmatik ekvivalentlik.

АННОТАЦИЯ: В статье исследуется одно из наиболее сложных понятий современной теории перевода — культурный эквивалент. На основе работ Э. Найды, П. Ньюмарка, Л. Бархударова, В. Комиссарова, а также узбекских переводоведов Ш. Рахматуллаева, Н. Касимова и А. Сабирова раскрываются механизмы трансляции культурно маркированных единиц. Анализируются проблемы семантической асимметрии, прагматической несовместимости и расхождения национально-культурных кодов при переводе художественных, публицистических и лингвокультурологических текстов. Автор предлагает оригинальные критерии выбора культурного эквивалента и новые пути решения выявленных проблем.

Ключевые слова: культурный эквивалент, коннотативное значение, культурный код, прагматическая эквивалентность, трансформация.

ABSTRACT: This article provides an in-depth analysis of cultural equivalence, one of the most complex categories in modern translation studies. Drawing on the theoretical contributions of E. Nida, P. Newmark, L. Barkhudarov, and V. Komissarov, as well as prominent Uzbek scholars such as Sh. Rahmatullaev, N. Qosimov, and A. Sobirov, the study examines how culture-bound elements undergo semantic, pragmatic, and cultural transformations in translation. Through examples from literary, publicistic, and culturally loaded texts, the research identifies key challenges, including semantic asymmetry and cultural code mismatches. The author also proposes a set of practical criteria for selecting appropriate cultural equivalents and suggests original strategies for resolving translation difficulties.

Keywords: cultural equivalence, connotative meaning, cultural code, pragmatic equivalence, translation transformation.

KIRISH

Tarjima jarayoni nafaqat til birliklarini almashtirish, balki madaniyatlararo ma'no ko'chirishni talab qiladigan murakkab kognitiv-lingvistik jarayondir. Shuning uchun madaniy belgilangan birliklar, realiyalar, frazeologizmlar, milliy metaforalar va mental tasavvurlarni tarjima qilish masalasi tarjimashunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda madaniy ekvivalentni topish — matnning pragmatik ta'siri, milliy ruhini saqlash va o'quvchi ongida ekvivalent assotsiativ obrazni yaratishning asosiy vositasidir.

Madaniy ekvivalent tushunchasi ilmga dastlab E. Nida tomonidan kiritilgan bo'lib, u tarjimada “dynamic equivalence”ning bir qismi sifatida madaniy almashtirish konsepsiyasini taklif etgan [Nida, 1964, b.157]. Keyinchalik P. Newmark ushbu yondashuvni rivojlantirib, madaniy ekvivalentni “culturally closest natural equivalent” sifatida izohlagan [Newmark, 1988, b.82]. Rus tarjimashunoslari — V. Komissarov, L. Barkhudarov, A. Fedorov — madaniy belgili birliklarni tarjima jarayonida semantik, funksional va stilistik ekvivalentlikning alohida kategoriyasi sifatida tadqiq qilgan. O'zbek tarjima maktabi vakillari ham bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Sh. Rahmatullaev realiyalar tarjimasida “milliy-madaniy semantika”ni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan [Rahmatullaev, 1992, 47-bet]. A. Sobirov esa madaniy ekvivalentni tanlash jarayonini “madaniy kodlararo moslikni yaratish” deb ta'riflaydi [Sobirov, 2012, 63-bet].

Bugungi global kommunikatsiya sharoitida madaniy ekvivalent miqyosi yanada kengayib, reklama matnlari, siyosiy nutqlar, kino tarjimasi, subtitrlash, yangi media matnlari va kross-madaniy kommunikatsiyada alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqola quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Madaniy ekvivalentning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish;
2. Jahon va o'zbek olimlarining konseptual qarashlarini tahlil qilish;
3. Madaniy birliklarni tarjima qilishda uchraydigan muammolarni ochib berish;
4. Haqiqiy ilmiy manbalar asosida misollarni tadqiq etish;

5. Muallif tomonidan taklif etiladigan yangi ilmiy yondashuv va yechimlarni taqdim etish.

Madaniy ekvivalentning nazariy-metodologik asoslari.

Madaniy ekvivalent — bu tarjima jarayonida madaniy jihatdan belgili birlikning boshqa til va madaniyatda unga eng yaqin bo‘lgan funksional, semantik va pragmatik mazmundagi birlik bilan almashtirilishidir. Bu tushuncha tarjima nazariyasida lingvokulturologiya, etnolingvistika, pragmalolingvistika va semantik ekvivalentlik masalalari bilan uzviy bog‘liq.

1.1. Ilmiy konsepsiyaning shakllanishi

Madaniy ekvivalent konsepsiyasi avvalo E. Nida tomonidan yoritilgan. U tarjimada “dynamic equivalence”ni ishlab chiqqan va bunda madaniy moslikni hal qiluvchi element sifatida “cultural substitution”ni taklif etgan:

“Translators must replace culture-bound items with receptors’ cultural equivalents whenever the same communicative effect is needed”(b157). [1]

P. Newmark esa madaniy ekvivalentni yanada tor, amaliy ma’noda tushuntirib:

“Cultural equivalent is the closest target-language cultural item which can substitute the source element”(b 82). [2]

Rus tarjimashunosi L.S. Barkhudarov madaniy ekvivalentni “semantik funksiya jihatidan qabul qiluvchi madaniyatga eng yaqin bo‘lgan birlik” deb belgilaydi (b76). [3]

O‘zbek tarjimashunoslaridan Sh. Rahmatullaev:

“Realiza tarjimasida milliy-madaniy semantika yo‘qolmasligi uchun tarjimon ekvivalent emas, balki funktsional mos birlikni qidirishi kerak”(b47). [4]

A. Sobirov madaniy ekvivalentni “madaniy kodlararo kognitiv moslikni yaratish mexanizmi” deb ta’riflaydi (b63). [5]

1.2. Madaniy birliklarning semantik xususiyatlari.

Madaniy birliklar odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Realizmalar (kimono, Navro‘z, Thanksgiving)

2. Madaniy metaforalar (oq uy, qora ro‘yxat, sariq matbuot)

3. An'anaviy ovqatlar (osh, plov, sushi, tacos)
4. Urfdan kelgan iboralar (ko'ngli to'q, nomi chiqdi, yuziga oyoq qo'yish)
5. Diniy birliklar (halol, ramazon, xudoyi, parishon ruh)
6. Tarixiy birliklar (amir, bek, samuray)

Har bir birlik tarjimada odatda:

1. Transliteratsiya
2. Izoh bilan berish
3. Madaniy ekvivalent tanlash
4. Funktsional almashtirish kabi usullar bilan qayta ishlab chiqiladi.

A. Hemingway asari misollari.[6]

1. "Sharks" (b. 37) → "Akulalar"

Ingliz madaniyatida "shark" — faqat hayvon emas, METAFORA (yovuz, ochko'z, halokat belgisi). O'zbekcha tarjimada esa neytral zoologik ma'no qoladi.

Madaniy ekvivalent yo'qolgan "yovuz akulalar" yoki "halokat timsoli bo'lgan akulalar".

2. "Baseball" (b. 14) → "Beysbol"

O'zbek madaniyatida beysbol — tanish emas, shuning uchun bu realiya o'quvchining hissiy tajribasini uyg'otmaydi. Hemingway uchun esa beysbol — MILLAT KUCHKAYTIRUVCHI OBRAZ. Sohaviy assotsiatsiya tarjimada yo'q.

Taklif: "amerikaliklarning sevimli o'yini — beysbol" (birinchi uchrashuvda).

3. "Joe DiMaggio" (b. 16) Tarjimada shunchaki ism o'tilsa — o'zbek o'quvchisiga hech narsa demaydi. Asarda DiMaggio — Motivatsiya va matonat timsoli.

Bu konnotatsiya yo'qoladi "afsonaviy beysbolchi Jo DiMaggio".

4. "Sardines" (b. 51)

Madaniy farq yo'q, lekin Hemingwayda sardina — baliqchilarning kambag'al hayotini ifodalovchi metafora. Tarjimada bu semantika kuchsiz ammo uning o'rniga "arzon sardinalar" qo'llasa ham bo'ladi.

5. "Harpoon" (b. 29)

Tahlil: Harpoon — Shimoliy Amerika baliqchilar madaniyatidagi tarixiy qurol.

“O‘q-yoyga o‘xshash nayza” deb berilsa ham bo‘ladi.

Taklif: “baliqchi nayzasi — harpun”.

6. “The Gulf Stream” (b. 11)

Tahlil: Bu oddiy geografik joy emas — Hemingway asarining ramziy fondi.

Tarjimada faqat “oqim”.

Taklif: “Atlantikaning mashhur Gulf oqimi”.

7. “Santo Cristo” (b. 47)

Tahlil: Katolik iborasi. O‘zbek o‘quvchiga notanish. Tarjimada “Muqaddas Iso” deb berilsa — diniy semantika mos keladi.

8. “Manolin” (b. 6)

Tahlil: Ispancha ism. Uning madaniy fonida “katoliklik” va “ispan dengizchilar an‘anasi” bor. Tarjimada yo‘qoladi.

Taklif: Birinchi bor → “Manolin (ispancha ism)”.

9. “The Yankees” (b. 14)

Tahlil: Amerika jamoasining ramzi — kuch, millat ruhi. Tarjimada o‘quvchi buni tushunmaydi.

Taklif: “Yankis — mashhur beysbol jamoasi”.

10. “Havana” (b. 3)

Tahlil: Kubalik baliqchilar madaniy fondi. Tarjima shunchaki geografik atama bo‘lib qoladi.

Taklif: “Gavana — Kuba poytaxti”.

Dickens asari misollari[7]

1. “Workhouse” (b. 7) → “Ish uyi”

Tahlil: Angliyaning XIX asrdagi ijtimoiy-muqaddam muassasasi. Tarjimada “ish uyi” — juda yengil.

Taklif: “qashshoqlar uchun yaratilgan qattiq tartibli ishxonaga o‘xshash workhouse”.

2. “Parish beadle” (b. 10)

Tahlil: Anglikan cherkovi amaldori. “O‘zbek madaniyatida muqobili yo‘q.”

Tarjimada “bekasi” — noto‘g‘ri. To‘g‘ri ekvivalent: “cherkov noziri”.

3. “Gruel” (b. 13)

Tahlil: Ingliz qashshoqlik ramzi. Tarjimada “suyuq bo‘tqa” mazmunni beradi, lekin konnotatsiya yo‘qoladi. “qashshoqlar uchun tayyorlanadigan suyuq bo‘tqa — gruel”.

4. “Gin shop” (b. 42)

Tahlil: Gin — Angliyaga xos spirtli ichimlik. Tarjimada “aroq do‘koni” — noo‘rin.

“jin sotiladigan spirtli ichimliklar do‘koni”.

5. “Newgate Prison” (b. 219)

Tahlil: Tarixiy qamoqxona — dahshat, jinoyat ramzi. Tarjimada “qamoqxona” — umumiy. “Londonning mashhur Newgate qamoqxonasi”.

6. “The Artful Dodger” (b. 59)

Tahlil: Ism emas — taxallus. Madaniy konnotatsiya yo‘qoladi. “chaqqon o‘g‘ri — Artful Dodger”.

7. “Charity boy” (b. 31)

Tahlil: Ijtimoiy tabaqa — yetimlar. Tarjimada “yetim bola” deyiladi, lekin ijtimoiy fon yo‘q. “xayriya jamg‘armasi tomonidan boqiladigan bola”.

8. “Bow Street Runners” (b. 256)

Tahlil: Angliyadagi ilk politsiya tizimi. Tarjimada oddiy “politsiya”.

“Angliyadagi ilk professional politsiya — Bow Street Runners”.

9. “Penny dreadful” (b. 317) Tahlil: 19-asr arzon qo‘rqinchli jurnallari.

Tarjimada “qo‘rqinchli jurnal”. “bir pennyga sotilgan qo‘rqinchli hikoyali jurnallar — penny dreadful”.

10. “Boarding school” (b. 129)

Tahlil: Ingliz aristokratiyasi maktabi. Tarjimada “internat”. “Angliyaga xos yashab o‘qiladigan maktab — boarding school”.

“Kecha va Kunduz” misollari [8]

Bu safar o‘zbek → ingliz tarjimasidagi madaniy ekvivalent masalasini tahlil qilamiz.

1. “Sunnat to‘yi” (b. 48)

Muammo: Ingliz tilida muqobili yo‘q. “Circumcision ceremony” deyish mumkin, lekin diniy-milliy ruh yo‘q.

Taklif: “traditional Muslim circumcision ceremony — sunnat to‘yi”.

2. “Do‘ppi” (b. 17)

Tarjimonlar odatda → “skullcap” Lekin bu — yahudiy kipasiga ham o‘xshaydi. Noaniqlik.

Taklif: “Uzbek embroidered skullcap — doppi”.

3. “Non sindirish” (b. 131)

Tarjima: “breaking bread” BU juda yaxshi madaniy ekvivalent. Assotsiatsiya mos keladi.

4. “Oq yo‘l” (b. 59)

Tarjima: “good luck”. Metafora yo‘qoladi.

Taklif: “wish someone a white, bright path”.

5. “Kelin salom” (b. 207)

Tarjima: “bride’s greeting ritual” Lekin konnotatsiya (yengillik, odob, hurmat) yo‘q. “traditional Uzbek bride’s respectful greeting — kelin salom”.

6. “Osh tortish” (b. 62)

“Serving plov” — yaxshi.

7. “Tandir non” (b. 79)

“tandoor bread” — to‘g‘ri.

8. “Qiz oshi” (b. 94)

Bu — faqat o‘zbekka xos marosim.

Taklif: “pre-wedding pilaf ceremony for girls — qiz oshi”.

9. “Holvaytar” (p. 115)

Muqobil yo‘q.

Taklif: “traditional mourn sweet — halvatar”.

10. “Qo‘shni ko‘ngli” (b. 204)

Kontekstual metafora (insoniylik, yordam). Ingliz tiliga oddiy tarjima bilan berib bo‘lmaydi.

Yechim: “neighborly goodwill — qo‘shni ko‘ngli”.

1. “*Madaniy rezonans testi*”

Tarjimon madaniy ekvivalent tanlashdan oldin 3 bosqichli rezonans testini o‘tkazishi kerak:

1. Semantik rezonans (ma’no mos keladimi?)
2. Hissiy rezonans (o‘quvchida xuddi shu emotsiyani uyg‘otadimi?)
3. Assotsiativ rezonans (madaniy kodlar mos keladimi?)

2. “*Ikki pog‘onali ekvivalentlash*”

Madaniy birlikni birinchi uchrashuvda izoh bilan, keyin esa qanotli qisqa shakl bilan berish:

Misol:

“sunnat to‘yi (traditional Muslim boy’s ceremony)” → keyingi sahifalarda “sunnat to‘yi”.

Bu — o‘quvchini charchatmaydi.

3. “Tarjima Ichki Madaniy Kod (TIMK) jadvali”

Har bir madaniy birlikka jadval tuziladi:

Manba kodi Ma’no Hissiy kuch Madaniy qiymat Tavsiya etilgan ekvivalent

4. Reklamada “Funksional Transformatsiya”

Agar reklama bo‘lsa, madaniy ekvivalent emas, balki funksiyani saqlash muhim.

Masalan:

“Thanksgiving sale” → “Katta minnatdorchilik aksiyasi emas”,

balki: “Oilaviy bayram oldi mega chegirmalar”.

5. “Anti-tipik ekvivalent modeli”

Ba'zi joylarda madaniy ekvivalent tanlamaslik — to'g'ri qaror.

Tarjimon MADANIY BEGONALIKNI ham saqlashi mumkin.

Bu – realizmni kuchaytiradi.

XULOSA

Madaniy ekvivalent tushunchasi tarjima nazariyasida asosiy ahamiyatga ega bo'lib, u tarjimada nafaqat so'zlarning, balki madaniy va hissiy kontekstning to'liq yetkazilishini ta'minlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarjima jarayonida madaniy birliklarni to'g'ri tanlash va ularga mos ekvivalent yaratish — matnning asl mazmuni, ohangi va o'quvchi hissiyotini saqlash uchun zarur.

Muallif tomonidan taklif qilingan noodatiy yondashuvlar — madaniy rezonans testi, ikki pog'onali ekvivalentlash va TIMK jadvali — tarjimashunoslikda innovatsion metod sifatida ko'riladi. Ushbu metodlar tarjimaga ilmiy asos va tizimlilik olib kiradi, shuningdek, o'quvchiga matnning madaniy rangini to'liq his qilish imkonini beradi. Umuman olganda, madaniy ekvivalent nafaqat tarjimaning sifatini oshiradi, balki o'quvchiga boshqa madaniyatni to'g'ri va mazmunli qabul qilish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, bu tushuncha tarjimashunoslikda markaziy o'rin egallashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, E. Language, Culture and Translating. London, 1964, p.157.
2. Newmark, P. A Textbook of Translation. London, 1988, p.82.
3. Barkhudarov, L.S. Problems of Literary Translation. Moscow, 1975, p.76.
4. Rahmatullaev, Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Tashkent, 1992, p.47.
5. Sobirov, A. Madaniy ekvivalent va tarjima. Tashkent, 2012, p.63.
6. Hemingway, E. The Old Man and the Sea. Scribner, 1952.
7. Dickens, C. Oliver Twist. Penguin Classics, 2003.
8. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Tashkent, 2019.